O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASh VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktorining birinchi o ‘rinbosari R. Xursanov

2026-yil 17-iyun

“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidan suhbat va kazus shaklida yakuniy sinov imtihonini o‘tkazish bo‘yicha METODIK MATERIALLAR

Metodik materiallar 2026-yil 10-iyunda tasdiqlangan o‘quv dasturiga asoslanib tayyorlangan

“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidan suhbat shaklida yakuniy sinov imtihonini o‘tkazish bo‘yicha
METODIK KO‘RSATMALAR

“Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursi *(keyingi o‘rinlarda – o‘quv kursi)* bo‘yicha malaka oshirgan tinglovchilarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonun hujjatlari yuzasidan og‘zaki va yozma ma’lumotnomalar bera olish;

huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuza olish;

fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy ishlari hamda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish;

jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da’vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etish;

jamoani shakllantirish, liderlik va muloqot qilish va rejalashtirish ko‘nikmalariga egabo‘lish;

yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo‘lish;

sharoitni obyektiv nazorat qilish va baholash qobiliyatining mavjudligi, huquq normalarinito‘g‘ri tushunish, ularni adolat prinsiplari asosida qo‘llay olish;

kasbiy faoliyat sohasiga oid asosiy atamalar hamda tushunchalarini bilishi;axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llay olishi;

tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko‘rsata olish, xakamlik sudida va xalqaro tijoratarbitrajida (sudida) vakillikni amalga oshira olish;

Advokatlik kasb etikasi qoidalarini bilish.

MAVZULAR BO‘YICHA YAKUNIY NAZORAT

Yakuniy sinov imtihoni advokatura faoliyatini takomillashtirish va kafolatlarini kengaytirish yo‘nalishlari va istiqbollari, fuqarolik va iqtisodiy ishlarda advokat ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari, ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritishda advokatning ishtiroki, advokatlarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar va maxsus bilim talab etiladigan sohalar hamda inson huquqlarini ta’minlashda advokaturaning roli va bu sohasidagi xorijiy tajribaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar darajasiga qarab baholash asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida nizomi”ga asosan malaka oshirish kurslari o‘quv dasturiga muvofiq belgilangan mavzular (modullar) bo‘yicha yakuniy sinov imtihonini topshirish bilan yakunlanadi.

Yakuniy sinov imtihonini tashkil etish va o‘tkazish uchun Institut direktorining buyrug‘i bilan komissiya tashkil etiladi.

Yakuniy sinov imtihoni natijalari komissiya a’zolari tomonidan imzolanadigan qaydnoma varaqalari bilan rasmiylashtiriladi.

Yakuniy sinovi tinglovchilar o‘quv kursiga taalluqli barcha materiallarni o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladi.

Yakuniy sinov imtihoni jarayonida tinglovchilar bilimini baholash usullari tinglovchining bilim darajasi – tanqidiy va tahliliy fikrlash, og‘zaki yoki yozma shaklda o‘z fikrlarini izchil va konstruktiv bayon qilish ko‘nikmalarini aniqlashdan iboratdir.

YAKUNIY SINOV IMTIHONINI O‘TKAZISH TARTIBI

Yakuniy sinov imtihoniikki bosqichli: kazus va suhbat shaklida amalga oshiriladi.

Yakuniy sinov imtihoni Pedagoglar markazi tomonidan tegishli kursning mavzulari bo‘yicha ishlab chiqilgan kazus va savollar asosida o‘tkaziladi.
Suhbat paytida komissiya a’zolari tomonidan o‘tilgan mavzula bo‘yicha qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

O‘quv kursi bo‘yicha yakuniy sinov, tinglovchilarga bilimni baholash mezonlarini e’lon qilishdan boshlanadi.

Yakuniy sinov baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

Baholash turi	**Baholash ko‘rsatgichi**	
Yakuniy baholash	O‘tdi	O‘tmadi

Tinglovchi quyidagi holatlarda yakuniy sinov imtihonidan “O‘tdi” deb hisoblanadi:

ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada qilish;
amalda qo‘llay olish;
mohiyatini tushuntirish;
tasavvurga ega bo‘lish.
hulosa va qaror qabul qilish.

Tinglovchi quyidagi holatlarda yakuniy sinov imtihonidan “O‘tmadi” deb hisoblanadi:

mohiyatni to‘liq tushuntirmaslik;
aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;
bilmaslik.

“**Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidan yakuniy sinov imtihonini o‘tkazish uchun**

SAVOLLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi advokat faoliyatida qanday namoyon bo‘ladi? *(Как проявляется прямое действие Конституции Республики Узбекистан в деятельности адвоката?)*
2. Shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi va advokatning ushbu huquqni ta’minlashdagi vazifalari. *(Право лица на получение квалифицированной юридической помощи и задачи адвоката по обеспечению этого права.)*
3. Aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi va protsessual tenglik prinsiplarining advokatlik faoliyatidagi ahamiyati.*(Значение презумпции невиновности, права на защиту и принципа процессуального равенства в адвокатской деятельности.)*
4. Advokatura institutini rivojlantirish va advokatlik faoliyati kafolatlarini kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlari. *(Приоритетные направления развития института адвокатуры и расширения гарантий адвокатской деятельности.)*
5. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining huquqiy maqomi, organlari va advokatlar huquqlarini himoya qilishdagi roli.*(Правовой статус, органы Палаты адвокатов Республики Узбекистан и её роль в защите прав адвокатов.)*
6. Advokatlik tuzilmalarining turlari, ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi. *(Виды адвокатских формирований, порядок их государственной регистрации, реорганизации и ликвидации.)*
7. Advokat maqomini olish, to‘xtatib turish va tugatish asoslari hamda ularning huquqiy oqibatlari. *(Osnovaniya priobreteniya, priostanovleniya i prekraweniya statusa advokata, a takje ix pravovye posledstviya.)*
8. Advokat litsenziyasining amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish asoslari. *(Основания приостановления и прекращения действия лицензии адвоката.)*
9. Advokatning kasbiy mustaqilligi, daxlsizligi va advokatlik sirini ta’minlash kafolatlari. *(Гарантии обеспечения профессиональной независимости, неприкосновенности адвоката и адвокатской тайны.)*
10. Advokatning xorijiy davlat sudlarida ishtirok etishi: milliy qonunchilik va xorijiy davlat qonunchiligi nisbati. *(Участие адвоката в судах иностранных государств: соотношение национального законодательства и законодательства иностранного государства.)*
11. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va advokatning profilaktik roli. *(Основные направления государственной политики в сфере противодействия коррупции и профилактическая роль адвоката.)*
12. Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, uni aniqlash va advokat faoliyatida bartaraf etish choralari. *(Понятие конфликта интересов, его выявление и меры устранения в адвокатской деятельности.)*

13. Advokatlik tuzilmalarida ish yurituvi hujjatlari: turlari, rasmiylashtirish va saqlash tartibi. *(Документы делопроизводства в адвокатских формированиях: виды, порядок оформления и хранения.)*

14. Advokat so‘rovi: yuborish asoslari, unga javob berish muddatlari va rad etish oqibatlari. *(Адвокатский запрос: основания направления, сроки ответа и последствия отказа в предоставлении информации.)*

15. Advokatlar elektron reestri va advokatning shaxsiy elektron kabineti imkoniyatlari. *(Электронный реестр адвокатов и возможности личного электронного кабинета адвоката.)*

16. Advokatlik faoliyatidan olingan daromadlarni hisobga olish va soliq majburiyatlarini bajarish tartibi. *(Порядок учёта доходов, полученных от адвокатской деятельности, и исполнения налоговых обязательств.)*

17. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda advokatning protsessual maqomi, vakolatlari va hujjatlarini rasmiylashtirish. *(Процессуальный статус, полномочия адвоката в суде по гражданским делам и оформление процессуальных документов.)*

18. Iqtisodiy sudlarda advokatning vakil sifatida ishtiroki: da’vo tayyorlash, dalil taqdim etish va protsessual himoya. *(Участие адвоката в экономических судах в качестве представителя: подготовка иска, представление доказательств и процессуальная защита.)*

19. Fuqarolik-shartnomaviy munosabatlarda majburiyatlarni bajarishni ta’minlash usullari. *(Способы обеспечения исполнения обязательств в гражданско-договорных отношениях.)*

20. Neustoyka, penya va jarima: tushunchasi, turlari va sud amaliyotida qo‘llanilishi. *(Неустойка, пеня и штраф: понятие, виды и применение в судебной практике.)*

21. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarda advokatning kreditor, qarzdor va boshqaruvchi bilan ishlash xususiyatlari. *(Особенности работы адвоката с кредитором, должником и управляющим в делах о неплатёжеспособности.)*

22. Korporativ nizolar bo‘yicha advokatning strategiyasi va dalillar bilan ishlash tartibi. *(Стратегия адвоката по корпоративным спорам и порядок работы с доказательствами.)*

23. Mehnat nizolarida advokatning roli: ishga tiklash, ish haqi, kompensatsiya va intizomiy jazolar. *(Роль адвоката в трудовых спорах: восстановление на работе, заработная плата, компенсация и дисциплинарные взыскания.)*

24. Yer munosabatlariga oid nizolarda advokatning ishtiroki va kadastr hujjatlari bilan ishlash. *(Участие адвоката в земельных спорах и работа с кадастровыми документами.)*

25. Er-xotin mol-mulkini bo‘lish to‘g‘risidagi nizolarda advokat pozitsiyasini shakllantirish. *(Формирование позиции адвоката по спорам о разделе имущества супругов.)*

26. Ekspertiza tayinlash, advokat so‘rovi va maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual asoslari. *(Процессуальные основания назначения экспертизы, направления адвокатского запроса и использования специальных знаний.)*

27. Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonunning mazmun-mohiyati va asosiy prinsiplari. *(Сущность и основные принципы Закона об административных процедурах.)*

28. Davlat xizmatlari ko‘rsatishda ma’muriy reglamentlar va “bir darcha” prinsipining ahamiyati. *(Значение административных регламентов и принципа «одного окна» при оказании государственных услуг.)*

29. Ma’muriy shikoyat berish, uni ko‘rib chiqish muddatlari va ma’muriy hujjat ijrosini to‘xtatish masalalari. *(Подача административной жалобы, сроки её рассмотрения и вопросы приостановления исполнения административного акта.)*

30. Ma’muriy sudlarda advokatning ishtiroki: da’vo arizasi, dalillar va sud qarorini ijro etish. *(Участие адвоката в административных судах: исковое заявление, доказательства и исполнение судебного решения.)*

31. Jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergovda himoyachining huquq va majburiyatlari.*(Права и обязанности защитника при дознании и предварительном следствии по уголовным делам.)*

32. Jinoyat ishlari bo‘yicha sudda advokatning protsessual huquqlari, e’tirozlari va himoya nutqi. *(Процессуальные права, возражения и защитительная речь адвоката в суде по уголовным делам.)*

33. Jinoyat protsessida dalillar tushunchasi, turlari va ularning maqbulligi mezonlari. *(Понятие и виды доказательств в уголовном процессе, а также критерии их допустимости.)*

34. Himoyachi tomonidan dalillarni to‘plash, taqdim etish va ularni ishga qo‘shish tartibi. *(Порядок сбора, представления и приобщения доказательств защитником.)*

35. Dalillarni maqbul emas deb topish asoslari va advokatning protsessual harakatlari. *(Основания признания доказательств недопустимыми и процессуальные действия адвоката.)*

36. Aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuvni tuzish shartlari va himoyachining roli.*(Условия заключения соглашения о признании вины и роль защитника.)*

37. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida advokat ishtirokining xususiyatlari. *(Особенности участия адвоката в процессе исполнения судебных актов и актов иных органов.)*

38. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ichki nazoratda advokatning vazifalari. *(Задачи адвоката в сфере внутреннего контроля по противодействию легализации доходов, полученных от преступной деятельности, и финансированию терроризма.)*

39. Raqamli advokatura tushunchasi, ahamiyati va rivojlanish istiqbollari. *(Понятие цифровой адвокатуры, её значение и перспективы развития.)*

40. Advokat faoliyatida axborot tizimlari, elektron hujjat aylanishi va kiberxavfsizlik talablari. *(Информационные системы, электронный документооборот и требования кибербезопасности в деятельности адвоката.)*

41. Sun’iy intellekt va robototexnikadan advokat amaliyotida foydalanish imkoniyatlari va xavflari. *(Возможности и риски использования искусственного интеллекта и робототехники в адвокатской практике.)*

42. Advokatlik sirini raqamli muhitda himoya qilish: shaxsiy ma’lumotlar, elektron pochta va messenjerlardan foydalanish. *(Защита адвокатской тайны в*

цифровой среде: персональные данные, электронная почта и использование мессенджеров.)

43. Advokat faoliyatida mediatsiyaning ahamiyati va mijoz manfaatlarini hisobga olgan holda kelishuvga erishish.*(Значение медиации в деятельности адвоката и достижение соглашения с учётом интересов клиента.)*

44. Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish va advokat kasb etikasi qoidalari. *(Дисциплинарное производство в отношении адвоката и правила профессиональной этики адвоката.)*

45. Advokat faoliyatida samarali muloqot, ishonchli munosabat o‘rnatish va mijoz bilan kommunikatsiya madaniyati. *(Эффективное общение в деятельности адвоката, установление доверительных отношений и культура коммуникации с клиентом.)*

46. Ommaviy nutq va sud nutqi: advokatning ta’sirli, mantiqiy va etik nutqini shakllantirish. *(Публичная и судебная речь: формирование убедительной, логичной и этичной речи адвоката.)*

47. 47Inson huquqlarini himoya qilishning milliy va xalqaro mexanizmlari. *(Национальные и международные механизмы защиты прав человека.)*

48. Qiynoq va shafqatsiz muomala holatlarini aniqlashda advokatning harakat algoritmi. *(Алгоритм действий адвоката при выявлении случаев пыток и жестокого обращения.)*

49. Gender tengligi, ayollar huquqlari va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatishda advokatning roli. *(Роль адвоката в обеспечении гендерного равенства, защите прав женщин и оказании юридической помощи лицам, пострадавшим от насилия.)*

50. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomaviy organlarga murojaat qilish shartlari va advokatning vazifalari. *(Условия обращения в международные договорные органы по правам человека и задачи адвоката.)*

“**Advokatlarning malakasini oshirish” o‘quv kursidan yakuniy sinov imtihonini o‘tkazish uchun**
KAZUSLAR

1-KAZUS

Vaziyat: Surishtiruv organiga olib kelingan fuqaro A.ga uning huquqlari tushuntirilmasdan tushuntirish xati yozdirildi. Keyinchalik u ushbu hujjat asosida gumon qilinuvchi deb e’tirof etildi. Advokat ishga kirishgach, mazkur hujjatga e’tiroz bildirdi.

Savollar: 1) Advokat qaysi konstitutsiyaviy va protsessual kafolatlarga tayanishi mumkin? 2) Ushbu hujjatni dalil sifatida baholashda qanday masala qo‘yilishi kerak?

2-KAZUS

Vaziyat: Sud muhokamasi davomida davlat ayblovchisi hukm chiqmasidan turib ayblanuvchini “jinoyati isbotlangan shaxs” deb atadi. Himoyachi darhol e’tiroz bildirdi va bayonnomaga kiritishni so‘radi.

Savollar: 1) Himoyachining e’tirozi asoslimi? 2) Bu holatda qaysi prinsip buzilishi mumkin?

3-KAZUS

Vaziyat: Qamoqda saqlanayotgan gumon qilinuvchi bilan uchrashgan advokat uning qo‘lida ko‘karishlar borligini va shaxs og‘riqdan shikoyat qilayotganini ko‘rdi. Gumon qilinuvchi “yiqilib tushdim” deb aytishga majburlanganini bildirdi.

Savollar: 1) Advokat birinchi navbatda qanday harakatlarni amalga oshirishi kerak?

2) Qiynoq yoki shafqatsiz muomala alomatlarini qayd etishda qanday hujjatlar talab qilinishi mumkin?

4-KAZUS

Vaziyat: Advokat bir vaqtning o‘zida ajrashish va mol-mulkni bo‘lish bo‘yicha erga huquqiy maslahat bergan. Bir haftadan so‘ng xotin ham shu advokatdan o‘z manfaatlarini sudda himoya qilishni so‘radi.

Savollar: 1) Bu vaziyatda manfaatlar to‘qnashuvi mavjudmi? 2) Advokat qanday qaror qabul qilishi kerak?

5-KAZUS

Vaziyat: Ishonch bildiruvchi shaxs advokatga sudya bilan “gaplashib qo‘yish” uchun qo‘shimcha pul taklif qildi. Advokat bu taklifni rad etmadi va “natija kafolatlanadi” deb aytdi.

Savollar: 1) Advokatning harakatlariga huquqiy va etik baho bering. 2) Bunday holat advokatlik faoliyati kafolatlariga qanday zarar yetkazadi?

6-KAZUS

Vaziyat: Advokatlik byurosida yuridik yordam ko‘rsatish shartnomalari to‘liq ro‘yxatga olinmagan, mijozlar bilan yozishmalar shaxsiy messenjerda saqlangan, ichki nazoratga doir mas’ul shaxs esa belgilanmagan.

Savollar: 1) Advokatlik tuzilmasida ish yurituvi qanday tashkil etilishi kerak? 2) Advokatlik siri va ichki nazorat nuqtayi nazaridan qanday xavflar mavjud?

7-KAZUS

Vaziyat: Advokat davlat organiga ishonch bildiruvchi shaxsning mulkiy huquqini tasdiqlovchi ma'lumotlarni so‘rab advokat so‘rovi yubordi. Davlat organi "faqat sud so‘roviga javob beramiz" deb rad javobini berdi.

Savollar: 1) Davlat organining rad javobi qonuniymi? 2) Advokat qanday huquqiy chora ko‘rishi mumkin?

8-KAZUS

Vaziyat: Advokatlik firmasi boshqa viloyatda filial ochish haqida qaror qabul qildi, ammo bu haqda adliya organini xabardor qilmadi. Filial orqali shartnomalar tuzila boshlandi.

Savollar: 1) Advokatlik tuzilmasining harakatlariga huquqiy baho bering. 2) Filial ochish va hujjatlashtirishda qanday talablarga rioya qilinishi lozim?

9-KAZUS

Vaziyat: Advokatning maqomi vaqtincha to‘xtatilgan. Asos bo‘lgan holat bartaraf etilganidan keyin u elektron kabinetda ma'lumotlarni yangilamasdan ishonch bildiruvchi bilan yangi shartnoma tuzdi.

Savollar: 1) Advokat faoliyatini qayta boshlash tartibi qanday bo‘lishi kerak? 2) Elektron reestr va shaxsiy kabinet ma'lumotlarining ahamiyati nimada?

10-KAZUS

Vaziyat: Tergov harakati davomida advokatning ish materiallari va mijoz bilan yozishmalari saqlangan noutbugi olib qo‘yildi. Tergovchi buni "ish uchun kerak" deb izohladi.

Savollar: 1) Advokatlik siri va advokat daxlsizligi nuqtayi nazaridan vaziyatga baho bering. 2) Advokat qanday protsessual harakatlarni amalga oshirishi mumkin?

11-KAZUS

Vaziyat: Advokat yuridik xizmat haqining bir qismini shartnomada ko‘rsatdi, qolgan qismini naqd pulda olib, hisobotda aks ettirmadi.

Savollar: 1) Advokatning harakati qonuniymi? 2) Bu holat qanday huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

12-KAZUS

Vaziyat: Fuqarolik ishi bo‘yicha sud majlisida advokat ishonchnoma va orderni taqdim etmasdan mijoz nomidan iltimosnoma kiritdi. Sud iltimosnomani ko‘rib chiqishni rad etdi.

Savollar: 1) Sudning harakati asoslimi? 2) Advokat sudda ishtirok etishi uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

13-KAZUS

Vaziyat: Iqtisodiy sudda da'vogar vakili bo‘lgan advokat da'vo arizasiga ilova qilingan asosiy shartnomani javobgarga oldindan yubormagan. Javobgar hujjatlar bilan tanishmaganini bildirib, suddan muddat so‘radi.

Savollar: 1) Advokatning protsessual xatosi nimada? 2) Sud mazkur holatda qanday protsessual qaror qabul qilishi mumkin?

14-KAZUS

Vaziyat: Shartnomada to‘lov kechiktirilgan har bir kun uchun 5 foiz penya belgilangan. Qarzdor penya miqdori adolatsiz va haddan tashqari yuqori ekanligini aytib, uni kamaytirishni so‘radi.

Savollar: 1) Advokat qaysi huquqiy dalillarni keltirishi mumkin? 2) Sud penyani kamaytirish masalasini qanday baholaydi?

15-KAZUS

Vaziyat: Bank qarzdordan qarzni undirish bilan bir vaqtda kafildan ham to‘liq summani talab qildi. Kafil avval qarzdorning mol-mulkidan undirish kerakligini bildirdi.

Savollar: 1) Kafillikning huquqiy oqibatlarini tushuntiring. 2) Bankning talabiga qanday baho beriladi?

16-KAZUS

Vaziyat: Korxona to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlariga ega. Kreditor advokati qarzdor aktivlari boshqa shaxslarga o‘tkazilayotganini aniqladi.

Savollar: 1) Advokat kreditor manfaatlarini himoya qilish uchun qanday choralarni taklif qilishi mumkin? 2) Qanday dalillar muhim hisoblanadi?

17-KAZUS

Vaziyat: MCHJ ishtirokchisi umumiy yig‘ilish qaroridan norozi. U yig‘ilish haqida o‘z vaqtida xabardor qilinmaganini va ulushi kamaytirilganini bildirmoqda.

Savollar: 1) Advokat korporativ nizoda qanday da’vo talablarini shakllantirishi mumkin? 2) Qanday hujjatlar va dalillar yig‘ilishi lozim?

18-KAZUS

Vaziyat: Xodim mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin buyruq nusxasini olmagan. Ish beruvchi esa uni intizomiy sabab bilan ishdan bo‘shatganini aytmoqda.

Savollar: 1) Advokat xodim huquqlarini qanday himoya qiladi? 2) Ishga tiklash va kompensatsiya talablarini asoslashda nimalarga e’tibor beriladi?

19-KAZUS

Vaziyat: Kadastr hujjatlaridagi xato sababli fuqaro tomorqasining bir qismi qo‘shni yer uchastkasiga kiritilgan. Qo‘shni qurilish boshlagan.

Savollar: 1) Advokat yer nizosini hal etishda qanday huquqiy yo‘llarni tanlashi mumkin? 2) Qanday ekspertiza yoki hujjatlar talab qilinadi?

20-KAZUS

Vaziyat: Nikoh davomida er yakka tartibdagi tadbirkorlik orqali katta daromad olgan. Ajrashish jarayonida xotin ushbu daromad hisobidan olingan mol-mulkni umumiy mol-mulk deb tan olishni so‘radi.

Savollar: 1) Xotin manfaatini himoya qilayotgan advokat pozitsiyasi qanday bo‘ladi?

2) Daromad va mol-mulkni isbotlashda qanday dalillar muhim?

21-KAZUS

Vaziyat: Iqtisodiy ishda ishonch bildiruvchi shaxs ekspertiza o‘tkazishni istamadi, ammo advokat ishni yutish uchun ekspertiza zarur deb hisoblaydi.

Savollar: 1) Advokat mijoz irodasi va kasbiy mustaqillik o‘rtasida qanday yo‘l tutadi? 2) Ekspertiza tayinlash bo‘yicha iltimosnoma berish tartibini tushuntiring.

22-KAZUS

Vaziyat: Ijro ishi yurituvida davlat ijrochisi undirilgan summadan avval boshqa kreditorlar talabini, keyin esa advokat xizmati haqini qondirishni belgiladi. Mijoz advokat haqi birinchi navbatda to‘lanishi kerakligini aytdi.

Savollar: 1) Davlat ijrochisining harakatiga huquqiy baho bering. 2) Ijro xarajatlari va talablarni qanoatlantirish navbati qanday ahamiyatga ega?

23-KAZUS

Vaziyat: Dorixona ochish uchun berilgan ariza bo‘yicha ma’muriy organ arizachidan soliq qarzi yo‘qligi va yashash joyi haqidagi ma’lumotnomalarni qog‘oz shaklida talab qildi.

Savollar: 1) Ma’muriy organ qaysi prinsiplarga rioya qilmagan bo‘lishi mumkin?

2) Advokat arizachi nomidan qanday talab kiritishi mumkin?

24-KAZUS

Vaziyat: Fuqaro ma’muriy organ qarorini kech oldi va shikoyat berish muddatini o‘tkazib yubordi. U kasalxonada davolanganini tasdiqlovchi hujjatlarga ega.

Savollar: 1) Advokat qanday protsessual iltimosnoma kiritishi mumkin? 2) Ma’muriy shikoyat berish muddatini tiklashda qanday holatlar inobatga olinadi?

25-KAZUS

Vaziyat: Litsenziya berish bo‘yicha ma’muriy ishda organ manfaatdor shaxsni eshitmasdan va dalillarini qabul qilmasdan rad etish haqida qaror chiqardi.

Savollar: 1) Ma’muriy organning harakatiga huquqiy baho bering. 2) Advokat qaror ustidan shikoyat qilishda qaysi prinsiplarga tayanadi?

26-KAZUS

Vaziyat: Tadbirkor soliq organining elektron qarorini asossiz deb hisoblaydi. Qarorda dalillar tahlili va motivlar ko‘rsatilmagan.

Savollar: 1) Advokat ma’muriy sudga murojaat qilishda qanday talablarni qo‘yishi mumkin? 2) Ma’muriy hujjatning asoslantirilganligi nima uchun muhim?

27-KAZUS

Vaziyat: Dastlabki tergovda himoyachi gumon qilinuvchining alibisini tasdiqlovchi videoyazuvni taqdim etdi. Tergovchi “bu himoya tomoni dalili” deb ishga qo‘shishdan bosh tortdi.

Savollar: 1) Tergovchining harakati qonuniymi? 2) Himoyachi qanday protsessual choralar ko‘rishi mumkin?

28-KAZUS

Vaziyat: Gumon qilinuvchi advokat kelmasidan oldin so‘roq qilindi. Bayonnomada u advokatdan voz kechgani yozilgan, ammo voz kechish alohida va erkin tarzda rasmiylashtirilmagan.

Savollar: 1) Himoyachi ushbu bayonnoma bo‘yicha qanday e’tiroz bildirishi mumkin? 2) Dalil maqbulligi masalasi qanday qo‘yiladi?

29-KAZUS

Vaziyat: Surishtiruvchi gumon qilinuvchiga huquqlarini tushuntirmasdan yuzlashtirish o‘tkazdi. Keyin himoyachi bu haqda shikoyat kiritdi.

Savollar: 1) Himoyachining shikoyati asoslimi? 2) Protsessual huquqlar tushuntirilmagan holat qanday oqibat keltirishi mumkin?

30-KAZUS

Vaziyat: Ayblanuvchi qiynoq ostida aybiga iqror bo‘lganini ma’lum qildi. Ishdagi asosiy dalil aynan shu iqrorlik bayonnomasi hisoblanadi.

Savollar: 1) Advokat dalilni maqbul emas deb topish uchun qanday asoslarni keltiradi? 2) Qaysi organlarga murojaat qilish mumkin?

31-KAZUS

Vaziyat: Ayblanuvchi og‘ir jinoyat bo‘yicha prokuror bilan aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv imzoladi. Himoyachi kelishuv shartlari bilan tanishtirilmagan.

Savollar: 1) Bunday kelishuvning qonuniyligiga qanday baho beriladi? 2) Himoyachining ishtirok etishi nima uchun muhim?

32-KAZUS

Vaziyat: Hukm e’lon qilinganidan keyin mahkum apellyatsiya shikoyati berishni xohlashini advokatga yetkazdi. Qamoqxona ma’muriyati advokat bilan uchrashuvni kechiktirmoqda.

Savollar: 1) Advokat qanday chora ko‘rishi kerak? 2) Shikoyat berish huquqi va muddatlarini ta’minlashda advokatning roli nimada?

33-KAZUS

Vaziyat: Jinoyat ishida ayblov kvalifikatsiyasi Oliy sud Plenumi tushuntirishlariga zid tarzda belgilangan. Prokuror “Plenum qarori qonun emas” deb advokat vajlarini inkor etdi.

Savollar: 1) Advokat Plenum qarorlaridan qanday foydalanishi mumkin? 2) Kvalifikatsiya bo‘yicha himoya pozitsiyasi qanday shakllantiriladi?

34-KAZUS

Vaziyat: Advokatga mijoz katta miqdorda naqd pulda gonorar to‘lashni taklif qildi va mablag‘ manbasini tushuntirishdan bosh tortdi.

Savollar: 1) Advokat jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi ichki nazorat nuqtayi nazaridan qanday harakat qilishi kerak? 2) Kasbiy sir va qonun talablari o‘rtasidagi muvozanatni tushuntiring.

35-KAZUS

Vaziyat: Advokat shaxsiy elektron kabineti orqali sudga hujjat yubordi, ammo fayl nomi va mazmunida mijozning shaxsiy ma’lumotlari ochiq ko‘rinib qoldi.

Savollar: 1) Raqamli ish yuritishda advokat qanday ehtiyot choralarini ko‘rishi lozim? 2) Shaxsiy ma’lumotlar va advokatlik sirini himoya qilish nuqtayi nazaridan vaziyatga baho bering.

36-KAZUS

Vaziyat: Advokat sun’iy intellektdan da’vo arizasi loyihasini tayyorlashda foydalandi. Loyihada mavjud bo‘lmagan qonun normasiga havola berilgani sudda aniqlandi.

Savollar: 1) Advokatning kasbiy mas’uliyati nimadan iborat? 2) AI vositalaridan foydalanishda manbalarni tekshirish qanday ahamiyatga ega?

37-KAZUS

Vaziyat: Advokat mijoz bilan ish bo‘yicha hujjatlarni ochiq Wi-Fi orqali yubordi. Keyin hujjatlar uchinchi shaxslarga tarqalib ketdi.

Savollar: 1) Kiberxavfsizlik nuqtayi nazaridan advokat qanday xatoga yo‘l qo‘ygan?

2) Bunday holatning huquqiy va intizomiy oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin?

38-KAZUS

Vaziyat: “LEX AI” tizimi advokatga sud amaliyoti bo‘yicha qisqa xulosa berdi. Advokat uni tekshirmasdan sud muzokarasida asosiy dalil sifatida keltirdi.

Savollar: 1) Advokatning harakatiga baho bering. 2) Raqamli vositalar natijalaridan foydalanishda qanday tekshiruv talab etiladi?

39-KAZUS

Vaziyat: Taraflar iqtisodiy nizoni sudda ko‘rayotgan paytda javobgar mediatsiyaga rozilik bildirdi. Da’vogar advokati mijozga sudni davom ettirish yoki kelishuvga erishish oqibatlarini tushuntirmadi.

Savollar: 1) Advokatning mijoz oldidagi majburiyatlari nimadan iborat? 2) Mediatsiya kelishuvining afzallik va xavflarini qanday tushuntirish kerak?

40-KAZUS

Vaziyat: Sud majlisida mijoz hayajonlanib, sudyaga nisbatan keskin gapirdi. Advokat vaziyatni yumshatish o‘rniga mijozni qo‘llab-quvvatlab, nizoni kuchaytirdi.

Savollar: 1) Advokatning kommunikatsiya va etika nuqtayi nazaridan xatosi nimada? 2) Nizo eskalatsiyasining oldini olish uchun qanday usullar qo‘llaniladi?

41-KAZUS

Vaziyat: Advokat murakkab jinoyat ishida bir necha kun dam olmasdan ishladi, sudda muhim e’tirozni bildirishni unutib qo‘ydi. Keyin u kuchli stress holatida bo‘lganini aytdi.

Savollar: 1) Kasbiy stress advokat faoliyati sifatiga qanday ta’sir qiladi? 2) Stressga chidamlilik va ishni rejalashtirish bo‘yicha qanday xulosa chiqarish mumkin?

42-KAZUS

Vaziyat: Advokat ommaviy axborot vositalariga chiqib, hali sudda ko‘rilayotgan ish bo‘yicha qarshi tarafni haqorat qiluvchi bayonot berdi.

Savollar: 1) Advokatning ommaviy nutqiga qanday etik talablar qo‘yiladi? 2) Bu holat intizomiy javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkinmi?

43-KAZUS

Vaziyat: Himoya ostidagi shaxs tergov izolyatorida tibbiy yordam ko‘rsatilmayotganini va shikoyatlari qabul qilinmayotganini bildirdi.

Savollar: 1) Advokat inson huquqlarini himoya qilishning qaysi milliy mexanizmlaridan foydalanishi mumkin? 2) Tibbiy yordam va shafqatsiz muomala masalasini qanday rasmiylashtirish kerak?

44-KAZUS

Vaziyat: Fuqaro ichki ishlar organida qiynoqqa uchraganini aytib, advokatdan xalqaro tashkilotlarga darhol murojaat qilishni so‘radi. Milliy huquqiy vositalardan hali foydalanilmagan.

Savollar: 1) Advokat avval qaysi milliy huquqiy vositalarni tushuntirishi kerak?

2) Xalqaro mexanizmlarga murojaat qilish shartlari nimalardan iborat?

45-KAZUS

Vaziyat: Xorijiy fuqaro O‘zbekistonda ma’muriy javobgarlikka tortilayotganini, tarjimon berilmaganini va o‘z elchixonasiga xabar berilmaganini bildirdi.

Savollar: 1) Advokat xorijiy fuqaro huquqlarini himoya qilishda qanday chora ko‘radi? 2) Xalqaro huquqiy yordam va konsullik aloqasi qanday ahamiyatga ega?

46-KAZUS

Vaziyat: Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan ayol himoya orderi olish, aliment va mol-mulk masalalari bo‘yicha advokatga murojaat qildi.

Savollar: 1) Advokat kompleks yuridik yordamni qanday tashkil etishi kerak? 2) Gender tengligi va jabrlanuvchi xavfsizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan qanday choralar muhim?

47-KAZUS

Vaziyat: Voyaga yetmagan shaxs jinoyat ishida gumon qilinuvchi sifatida so‘roq qilinmoqda. So‘roqda pedagog va qonuniy vakil ishtirok etmagan, advokat esa keyin chaqirilgan.

Savollar: 1) Voyaga yetmagan shaxs huquqlarini himoya qilishda qanday kafolatlar buzilgan bo‘lishi mumkin? 2) Advokat qanday protsessual talablar qo‘yishi lozim?

48-KAZUS

Vaziyat: Inson huquqlari buzilgani haqida jurnalistik surishtiruv e’lon qilindi. Jabrlanuvchi ushbu maqolani sudda yagona dalil sifatida taqdim etmoqchi.

Savollar: 1) Jurnalistik material inson huquqlarini himoya qilishda qanday ahamiyatga ega? 2) Sudda uni dalil sifatida baholash uchun advokat qanday qo‘shimcha harakatlarni amalga oshirishi kerak?

49-KAZUS

Vaziyat: Mijoz advokatdan ishni tezlashtirish uchun sud xodimiga sovg‘a berishni so‘radi. Advokat mijozni bunday harakat oqibatlari haqida ogohlantirdi va rad etdi.

Savollar: 1) Advokatning harakati to‘g‘rimi? 2) Korrupsiyaviy xavflarning oldini olishda advokatning tushuntirish vazifasi nimadan iborat?

50-KAZUS

Vaziyat: Davlat organi advokat so‘roviga javobni belgilangan muddatdan kech yubordi. Shu sababli sudga da’vo kiritish muddati o‘tib ketish xavfi paydo bo‘ldi.

Savollar: 1) Advokat mijoz manfaatini himoya qilish uchun qanday choralar ko‘rishi mumkin? 2) Davlat organining javobgarligi masalasi qanday qo‘yiladi?

КАЗУСЫ
для проведения итогового экзамена по курсу “Повышения квалификации адвокатов”

1-КАЗУС

Ситуация: Гражданин А. был доставлен в орган дознания, где с него взяли письменное объяснение без разъяснения прав. Позднее на основании этого документа он был признан подозреваемым. После вступления в дело адвокат заявил возражение против использования данного документа.

Вопросы: 1) На какие конституционные и процессуальные гарантии может ссылаться адвокат? 2) Какой вопрос должен быть поставлен при оценке этого документа как доказательства?

2-КАЗУС

Ситуация: В ходе судебного разбирательства государственный обвинитель до вынесения приговора назвал подсудимого “лицом, чья вина доказана”. Защитник немедленно заявил возражение и попросил занести его в протокол.

Вопросы: 1) Обосновано ли возражение защитника? 2) Какой принцип может быть нарушен в данной ситуации?

3-КАЗУС

Ситуация: Во время встречи с содержащимся под стражей подозреваемым адвокат увидел синяки на его руках, а сам подозреваемый жаловался на боль. Он сообщил, что его заставили говорить, будто он “сам упал”.

Вопросы: 1) Какие действия адвокат должен совершить в первую очередь? 2) Какие документы могут потребоваться для фиксации признаков пыток или жестокого обращения?

4-КАЗУС

Ситуация: Адвокат ранее консультировал мужа по вопросу развода и раздела имущества. Через неделю жена обратилась к этому же адвокату с просьбой представлять ее интересы в суде по тому же спору.

Вопросы: 1) Имеется ли в данной ситуации конфликт интересов? 2) Какое решение должен принять адвокат?

5-КАЗУС

Ситуация: Доверитель предложил адвокату дополнительную сумму для того, чтобы “поговорить с судьей”. Адвокат не отказался от предложения и сказал, что “результат будет гарантирован”.

Вопросы: 1) Дайте правовую и этическую оценку действиям адвоката. 2) Как такая ситуация подрывает гарантии адвокатской деятельности?

6-КАЗУС

Ситуация: В адвокатском бюро договоры об оказании юридической помощи регистрировались не полностью, переписка с клиентами хранилась в личном мессенджере, а ответственное лицо по внутреннему контролю не было определено.

Вопросы: 1) Как должно быть организовано делопроизводство в адвокатском формировании? 2) Какие риски возникают с точки зрения адвокатской тайны и внутреннего контроля?

7-КАЗУС

Ситуация: Адвокат направил в государственный орган адвокатский запрос о предоставлении сведений, подтверждающих имущественное право доверителя. Государственный орган отказал, указав, что отвечает “только на судебные запросы”.

Вопросы: 1) Законен ли отказ государственного органа? 2) Какие правовые меры может предпринять адвокат?

8-КАЗУС

Ситуация: Адвокатская фирма приняла решение открыть филиал в другой области, но не уведомила об этом орган юстиции. Через филиал уже начали заключаться договоры с клиентами.

Вопросы: 1) Дайте правовую оценку действиям адвокатского формирования. 2) Какие требования должны соблюдаться при открытии и документальном оформлении филиала?

9-КАЗУС

Ситуация: Статус адвоката был временно приостановлен. После устранения обстоятельства, послужившего основанием для приостановления, он заключил новый договор с доверителем, не обновив сведения в электронном кабинете.

Вопросы: 1) Каков порядок возобновления адвокатской деятельности? 2) В чем значение электронного реестра и личного электронного кабинета?

10-КАЗУС

Ситуация: В ходе следственного действия был изъят ноутбук адвоката, на котором хранились материалы дела и переписка с клиентом. Следователь объяснил это тем, что техника “нужна для дела”.

Вопросы: 1) Оцените ситуацию с точки зрения адвокатской тайны и неприкосновенности адвоката. 2) Какие процессуальные действия может совершить адвокат?

11-КАЗУС

Ситуация: Адвокат указал в договоре только часть гонорара, а оставшуюся часть получил наличными и не отразил в отчетности.

Вопросы: 1) Законны ли действия адвоката? 2) К каким правовым последствиям может привести данная ситуация?

12-КАЗУС

Ситуация: В судебном заседании по гражданскому делу адвокат заявил ходатайство от имени клиента, не представив доверенность и ордер. Суд отказался рассматривать ходатайство.

Вопросы: 1) Обоснованы ли действия суда? 2) Какие документы необходимы для участия адвоката в суде?

13-КАЗУС

Ситуация: В экономическом суде адвокат истца не направил ответчику заранее основной договор, приложенный к исковому заявлению. Ответчик заявил, что не ознакомлен с документами, и попросил суд предоставить время.

Вопросы: 1) В чем состоит процессуальная ошибка адвоката? 2) Какое процессуальное решение может принять суд?

14-КАЗУС

Ситуация: В договоре предусмотрена пеня в размере 5 процентов за каждый день просрочки оплаты. Должник заявил, что размер пени несправедлив и чрезмерно высок, и попросил ее уменьшить.

Вопросы: 1) Какие правовые доводы может привести адвокат? 2) Как суд оценивает вопрос об уменьшении неустойки?

15-КАЗУС

Ситуация: Банк потребовал взыскания всей суммы одновременно с должника и поручителя. Поручитель заявил, что сначала взыскание должно быть обращено на имущество должника.

Вопросы: 1) Объясните правовые последствия поручительства. 2) Как следует оценить требование банка?

16-КАЗУС

Ситуация: Предприятие имеет признаки неплатежеспособности. Адвокат кредитора установил, что активы должника переводятся на других лиц.

Вопросы: 1) Какие меры адвокат может предложить для защиты интересов кредитора? 2) Какие доказательства будут иметь значение?

17-КАЗУС

Ситуация: Участник ООО не согласен с решением общего собрания. Он утверждает, что не был своевременно уведомлен о собрании, а его доля была уменьшена.

Вопросы: 1) Какие исковые требования может сформулировать адвокат в корпоративном споре? 2) Какие документы и доказательства необходимо собрать?

18-КАЗУС

Ситуация: После прекращения трудового договора работник не получил копию приказа. Работодатель утверждает, что увольнение было произведено по дисциплинарным основаниям.

Вопросы: 1) Как адвокат может защищать права работника? 2) На что следует обратить внимание при обосновании требований о восстановлении на работе и компенсации?

19-КАЗУС

Ситуация: Из-за ошибки в кадастровых документах часть приусадебного участка гражданина была включена в участок соседа. Сосед начал строительство.

Вопросы: 1) Какие правовые способы разрешения земельного спора может выбрать адвокат? 2) Какая экспертиза или документы могут потребоваться?

20-КАЗУС

Ситуация: Во время брака муж получил значительный доход от индивидуальной предпринимательской деятельности. При разводе жена просит признать имущество, приобретенное за счет этого дохода, общим имуществом супругов.

Вопросы: 1) Какой будет позиция адвоката, представляющего интересы жены? 2) Какие доказательства важны для подтверждения дохода и имущества?

21-КАЗУС

Ситуация: В экономическом деле доверитель не хочет проведения экспертизы, однако адвокат считает, что экспертиза необходима для выигрыша дела.

Вопросы: 1) Как адвокату действовать при соотношении воли клиента и профессиональной самостоятельности? 2) Разъясните порядок подачи ходатайства о назначении экспертизы.

22-КАЗУС

Ситуация: В исполнительном производстве государственный исполнитель определил, что из взысканной суммы сначала удовлетворяются требования других кредиторов, а затем оплачиваются услуги адвоката. Клиент утверждает, что адвокатский гонорар должен быть оплачен первым.

Вопросы: 1) Дайте правовую оценку действиям государственного исполнителя. 2) Какое значение имеют исполнительные расходы и очередность удовлетворения требований?

23-КАЗУС

Ситуация: По заявлению об открытии аптеки административный орган потребовал от заявителя бумажные справки об отсутствии налоговой задолженности и о месте жительства.

Вопросы: 1) Какие принципы мог нарушить административный орган? 2) Какие требования адвокат может заявить от имени заявителя?

24-КАЗУС

Ситуация: Гражданин поздно получил решение административного органа и пропустил срок подачи жалобы. У него имеются документы, подтверждающие лечение в больнице.

Вопросы: 1) Какое процессуальное ходатайство может заявить адвокат? 2) Какие обстоятельства учитываются при восстановлении срока административного обжалования?

25-КАЗУС

Ситуация: В административном деле о выдаче лицензии орган принял решение об отказе, не выслушав заинтересованное лицо и не приняв его доказательства.

Вопросы: 1) Дайте правовую оценку действиям административного органа. 2) На какие принципы будет ссылаться адвокат при обжаловании решения?

26-КАЗУС

Ситуация: Предприниматель считает электронное решение налогового органа необоснованным. В решении отсутствуют анализ доказательств и мотивы принятого вывода.

Вопросы: 1) Какие требования адвокат может заявить при обращении в административный суд? 2) Почему мотивированность административного акта имеет значение?

27-КАЗУС

Ситуация: На предварительном следствии защитник представил видеозапись, подтверждающую алиби подозреваемого. Следователь отказался приобщить ее к делу, заявив, что это “доказательство стороны защиты”.

Вопросы: 1) Законны ли действия следователя? 2) Какие процессуальные меры может предпринять защитник?

28-КАЗУС

Ситуация: Подозреваемого допросили до прибытия адвоката. В протоколе указано, что он отказался от адвоката, однако отказ не был оформлен отдельно и свободно.

Вопросы: 1) Какие возражения может заявить защитник по поводу данного протокола? 2) Как ставится вопрос о допустимости доказательства?

29-КАЗУС

Ситуация: Дознаватель провел очную ставку, не разъяснив подозреваемому его права. Позднее защитник подал жалобу.

Вопросы: 1) Обоснована ли жалоба защитника? 2) Какие последствия может повлечь неразъяснение процессуальных прав?

30-КАЗУС

Ситуация: Обвиняемый сообщил, что признал вину под пытками. Основным доказательством по делу является именно протокол признательных показаний.

Вопросы: 1) Какие основания адвокат приведет для признания доказательства недопустимым? 2) В какие органы можно обратиться?

31-КАЗУС

Ситуация: Обвиняемый по делу о тяжком преступлении подписал с прокурором соглашение о признании вины. Защитник не был ознакомлен с условиями соглашения.

Вопросы: 1) Как следует оценить законность такого соглашения? 2) Почему участие защитника имеет значение?

32-КАЗУС

Ситуация: После оглашения приговора осужденный передал адвокату желание подать апелляционную жалобу. Администрация места содержания под стражей затягивает встречу с адвокатом.

Вопросы: 1) Какие меры должен принять адвокат? 2) В чем состоит роль адвоката в обеспечении права на обжалование и соблюдении сроков?

33-КАЗУС

Ситуация: В уголовном деле квалификация обвинения определена вопреки разъяснениям Пленума Верховного суда. Прокурор отклонил доводы адвоката, заявив, что “постановление Пленума не является законом”.

Вопросы: 1) Как адвокат может использовать постановления Пленума? 2) Как формируется позиция защиты по вопросу квалификации?

34-КАЗУС

Ситуация: Клиент предложил адвокату оплатить крупный гонорар наличными и отказался объяснить происхождение денежных средств.

Вопросы: 1) Как адвокат должен действовать с точки зрения внутреннего контроля по противодействию легализации преступных доходов? 2) Разъясните баланс между адвокатской тайной и требованиями закона.

35-КАЗУС

Ситуация: Адвокат направил документы в суд через личный электронный кабинет, однако в названии файла и его содержании открыто отображались персональные данные клиента.

Вопросы: 1) Какие меры предосторожности должен принимать адвокат при цифровом делопроизводстве? 2) Оцените ситуацию с точки зрения защиты персональных данных и адвокатской тайны.

36-КАЗУС

Ситуация: Адвокат использовал искусственный интеллект для подготовки проекта искового заявления. В суде выяснилось, что проект содержит ссылку на несуществующую правовую норму.

Вопросы: 1) В чем состоит профессиональная ответственность адвоката? 2) Какое значение имеет проверка источников при использовании AI-инструментов?

37-КАЗУС

Ситуация: Адвокат отправил клиенту документы по делу через открытую сеть Wi-Fi. Позднее документы оказались у третьих лиц.

Вопросы: 1) Какую ошибку допустил адвокат с точки зрения кибербезопасности? 2) Какими могут быть правовые и дисциплинарные последствия такой ситуации?

38-КАЗУС

Ситуация: Система “LEX AI” предоставила адвокату краткий обзор судебной практики. Адвокат не проверил его и использовал как основной довод в судебных прениях.

Вопросы: 1) Оцените действия адвоката. 2) Какая проверка необходима при использовании результатов цифровых инструментов?

39-КАЗУС

Ситуация: Во время рассмотрения экономического спора ответчик согласился на медиацию. Адвокат истца не разъяснил клиенту последствия продолжения судебного спора или заключения соглашения.

Вопросы: 1) Каковы обязанности адвоката перед клиентом? 2) Как следует разъяснить преимущества и риски медиативного соглашения?

40-КАЗУС

Ситуация: В судебном заседании клиент, находясь в эмоциональном состоянии, резко высказался в адрес судьи. Адвокат вместо снижения напряжения поддержал клиента и усилил конфликт.

Вопросы: 1) В чем ошибка адвоката с точки зрения коммуникации и этики? 2) Какие методы применяются для предотвращения эскалации конфликта?

41-КАЗУС

Ситуация: Адвокат несколько дней без отдыха работал по сложному уголовному делу и в суде забыл заявить важное возражение. Позднее он объяснил это сильным стрессом.

Вопросы: 1) Как профессиональный стресс влияет на качество адвокатской деятельности? 2) Какие выводы можно сделать о стрессоустойчивости и планировании работы?

42-КАЗУС

Ситуация: Адвокат выступил в средствах массовой информации и сделал оскорбительное заявление в адрес противоположной стороны по делу, которое еще рассматривается судом.

Вопросы: 1) Какие этические требования предъявляются к публичной речи адвоката? 2) Может ли такая ситуация повлечь дисциплинарную ответственность?

43-КАЗУС

Ситуация: Подзащитный сообщил, что в следственном изоляторе ему не оказывают медицинскую помощь и не принимают его жалобы.

Вопросы: 1) Какие национальные механизмы защиты прав человека может использовать адвокат? 2) Как оформить вопрос о медицинской помощи и возможном жестоком обращении?

44-КАЗУС

Ситуация: Гражданин сообщил адвокату, что подвергся пыткам в органах внутренних дел, и просит немедленно обратиться в международные организации. Национальные средства правовой защиты еще не использовались.

Вопросы: 1) Какие национальные средства правовой защиты должен сначала разъяснить адвокат? 2) Каковы условия обращения в международные механизмы?

45-КАЗУС

Ситуация: Иностранный гражданин сообщил, что привлекается к административной ответственности в Узбекистане, ему не предоставлен переводчик и не сообщено в его посольство.

Вопросы: 1) Какие меры должен принять адвокат для защиты прав иностранного гражданина? 2) Какое значение имеют международная правовая помощь и консульская связь?

46-КАЗУС

Ситуация: Женщина, пострадавшая от семейного насилия, обратилась к адвокату по вопросам получения охранного ордера, алиментов и раздела имущества.

Вопросы: 1) Как адвокат должен организовать комплексную юридическую помощь? 2) Какие меры важны с точки зрения гендерного равенства и обеспечения безопасности потерпевшей?

47-КАЗУС

Ситуация: Несовершеннолетний допрашивается в качестве подозреваемого по уголовному делу. В допросе не участвовали педагог и законный представитель, а адвокат был приглашен позднее.

Вопросы: 1) Какие гарантии прав несовершеннолетнего могли быть нарушены?
2) Какие процессуальные требования должен заявить адвокат?

48-КАЗУС

Ситуация: Было опубликовано журналистское расследование о нарушении прав человека. Потерпевший хочет представить эту статью в суд как единственное доказательство.

Вопросы: 1) Какое значение может иметь журналистский материал в защите прав человека? 2) Какие дополнительные действия должен предпринять адвокат для оценки материала судом как доказательства?

49-КАЗУС

Ситуация: Клиент попросил адвоката подарить сотруднику суда подарок для ускорения рассмотрения дела. Адвокат предупредил клиента о последствиях такого поведения и отказался.

Вопросы: 1) Правильно ли поступил адвокат? 2) В чем состоит разъяснительная функция адвоката при предупреждении коррупционных рисков?

50-КАЗУС

Ситуация: Государственный орган направил ответ на адвокатский запрос с нарушением установленного срока. В связи с этим возник риск пропуска срока обращения в суд.

Вопросы: 1) Какие меры может принять адвокат для защиты интересов клиента? 2) Как может быть поставлен вопрос об ответственности государственного органа?

Markaz mudiri v.b. **Z. Raxmonov**

Kelishildi

Bo‘lim boshlig‘i v.b. **A. Yusupbayeva**